Аннотация. В данном исследовании изучается влияние цифровых платежных систем и цифровизации бизнеса на расширение финансового охвата, сокращение теневой экономики и увеличение налоговых поступлений на примере развивающихся стран. На основе методологии качественного сравнительного анализа кейсов (comparative case study) обобщены практики Бразилии (PIX), Индии (UPI), Кении (M-Pesa) и Перу (BIM), а также эмпирические данные BIS и IMF. Результаты исследования показывают, что бесплатные и интероперабельные системы быстрых платежей, функционирующие при содействии центрального банка, способствуют расширению финансового охвата в краткосрочной перспективе и существенному снижению потребности в использовании наличных денежных средств. Кроме того, синергия цифровизации бизнеса и GovTech способствует повышению налоговой дисциплины (compliance channel), что оказывает положительное влияние на увеличение доли налоговых поступлений в ВВП. Особенно отмечается значимая роль легализации доходов в увеличении налоговых поступлений в сфере услуг. В заключение исследования разработаны практические рекомендации по развитию национальной платежной инфраструктуры, расширению использования цифровых платежей и снижению издержек, связанных с соблюдением налоговой дисциплины, в экономике Узбекистана.

Ключевые слова: цифровые платежные системы, PIX, финансовая инклюзия, теневая экономика, налоговая дисциплина, GovTech, платежная инфраструктура, экономика Узбекистана.



Abstract. This study examines the impact of digital payment systems and business digitalization on expanding financial inclusion, reducing the shadow economy, and increasing tax revenues, drawing on the experience of developing countries. Based on a qualitative comparative case study methodology, the study synthesizes the experiences of Brazil (PIX), India (UPI), Kenya (M-Pesa), and Peru (BIM), together with empirical evidence from the BIS and IMF. The findings indicate that free and interoperable instant payment platforms operating under the support of central banks can rapidly expand financial inclusion and significantly reduce the need for cash transactions. Furthermore, the synergy between business digitalization and GovTech solutions contributes to improved tax compliance (compliance channel), thereby positively affecting the share of tax revenues in GDP. The study also highlights the important role of income formalization in increasing tax revenues, particularly in the services sector. Finally, practical recommendations are developed for Uzbekistan to strengthen national payment infrastructure, expand the use of digital payments, and reduce compliance costs associated with tax obligations.

Keywords: digital payment systems, PIX, financial inclusion, shadow economy, tax compliance, GovTech, payment infrastructure, Uzbekistan's economy.

KIRISH

Raqamli texnologiyalarning jadal rivojlanishi moliyaviy xizmatlar sohasini tubdan transformatsiya qilib, raqamli to'lov tizimlarini zamonaviy iqtisodiyotning muhim infratuzilmaviy tarkibiy qismiga aylantirmoqda. Mobil to'lovlar, elektron hamyonlar, QR-kod asosidagi hisob-kitoblar hamda real vaqt rejimida ishlovchi to'lov platformalarining keng joriy etilishi to'lov jarayonlarini soddalashtirish bilan bir qatorda, aholining va tadbirkorlik subyektlarining moliyaviy xizmatlardan foydalanish imkoniyatlarini kengaytirmoqda. Shu jihatdan, raqamli to'lov tizimlari nafaqat texnologik innovatsiya, balki iqtisodiy faollikni rag'batlantirish, moliyaviy inklyuziyani kengaytirish va zamonaviy moliyaviy infratuzilmani rivojlantirishga xizmat qiluvchi muhim vosita sifatida namoyon bo'lmoqda.

BIS tomonidan 101 mamlakat misolida olib borilgan tadqiqot natijalari elektron to'lovlardan foydalanish ko'lamining kengayishi norasmiy iqtisodiyot ulushining qisqarishi hamda iqtisodiy o'sish sur'atlarining yaxshilanishi bilan bog'liqligini ko'rsatadi. IMF tomonidan olib borilgan tadqiqotlarda esa raqamli texnologiyalarning soliq ma'muriyatchiligi samaradorligini oshirish, soliq to'lovlari ustidan nazoratni takomillashtirish va davlat daromadlarini ko'paytirishdagi muhim roli ta'kidlangan. Mazkur ilmiy natijalar raqamli to'lov tizimlarining iqtisodiy ahamiyati moliyaviy xizmatlar sohasi bilan cheklanib qolmasdan, iqtisodiy faoliyatni rasmiylashtirish, soliq bazasini kengaytirish va davlat moliyaviy resurslarini mustahkamlash kabi yo'nalishlarni ham qamrab olishini ko'rsatadi [1, 3].

Raqamli to'lov tizimlarini joriy etish va rivojlantirish bo'yicha mamlakatlar tajribasi institutsional muhit, texnologik infratuzilma va tartibga solish mexanizmlariga ko'ra sezilarli darajada farqlanadi. Xususan, Keniyada M-Pesa, Hindistonda UPI hamda Braziliyada PIX platformalarining keng joriy etilishi raqamli to'lovlar ekotizimining rivojlanishiga va moliyaviy xizmatlardan foydalanish imkoniyatlarining kengayishiga xizmat qilgan. Peruda esa BIM loyihasining joriy etilishi kutilgan darajadagi natijalarni shakllantirmagan bo'lib, ushbu tajriba raqamli to'lov tizimlarini muvaffaqiyatli rivojlantirish uchun tegishli institutsional, texnologik va tartibga soluvchi shart-sharoitlarning muhimligini ko'rsatadi.

Mazkur tadqiqot ushbu mamlakatlar tajribasini qiyosiy o'rganish orqali raqamli to'lov tizimlarining samarali rivojlanishiga ta'sir etuvchi asosiy omillarni aniqlashga qaratilgan. Tadqiqot doirasida Keniya, Hindiston, Braziliya va Peru tajribalari qiyosiy tahlil qilinib, raqamli to'lov tizimlarining muvaffaqiyatini belgilovchi institutsional, texnologik va tartibga soluvchi omillar tizimlashtiriladi hamda O'zbekiston sharoitida ulardan foydalanish imkoniyatlari asoslab beriladi [2].

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

BIS tomonidan 101 mamlakat ma'lumotlari asosida olib borilgan empirik tadqiqot natijalari raqamli to'lovlardan foydalanish ko'lamining kengayishi norasmiy iqtisodiyot ulushining kamayishi hamda iqtisodiy o'sish bilan ijobiy bog'liqlikka ega ekanligini ko'rsatadi. Elektron to'lovlarning keng ommalashuvi moliyaviy inklyuziyani kuchaytirish, iqtisodiy operatsiyalarni rasmiy sektorga jalb etish va iqtisodiy shaffoflikni oshirishga xizmat qilishi qayd etilgan [1].

Aurazo va Gasmi tomonidan Keniya, Hindiston, Braziliya hamda Peru tajribalarining qiyosiy tahlili amalga oshirilib, samarali raqamli to'lov ekotizimlarini shakllantirishda davlatning faol ishtiroki, samarali



tartibga solish mexanizmlari, o'zaro moslashuvchan to'lov infratuzilmasi hamda moliyaviy institutlar va fintech kompaniyalari o'rtasidagi hamkorlik muhim omillar sifatida belgilangan [2]. IMF tadqiqotlari esa raqamli texnologiyalarning ijobiy iqtisodiy ta'siri zamonaviy infratuzilma bilan bir qatorda, mustahkam huquqiy baza, institutsional salohiyat va samarali boshqaruv tizimining mavjudligi bilan ham chambarchas bog'liqligini ko'rsatadi [3].

Umuman olganda, mavjud ilmiy adabiyotlarda raqamli to'lov tizimlarining iqtisodiy, institutsional va fiskal ahamiyati turli nuqtayi nazarlardan keng yoritilgan. Shu bilan birga, turli mamlakatlar tajribasini yagona qiyosiy yondashuv asosida tizimlashtirish va raqamli to'lov tizimlarining muvaffaqiyatli rivojlanishiga ta'sir etuvchi omillarni kompleks ravishda aniqlash yo'nalishida qo'shimcha tadqiqotlarga ehtiyoj mavjud. Mazkur tadqiqot ushbu yo'nalishni rivojlantirishga hissa qo'shishni, tanlangan mamlakatlar tajribasini qiyosiy tahlil qilish orqali muvaffaqiyatning asosiy institutsional, texnologik va tartibga soluvchi omillarini aniqlash hamda ularning O'zbekiston sharoitida qo'llash imkoniyatlarini asoslashni maqsad qiladi.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Mazkur tadqiqot sifatli tadqiqot (qualitative research) yondashuvi asosida amalga oshirilib, qiyosiy keys-tahlil (comparative case study) metodidan foydalanildi. Tadqiqot uchun Keniya, Hindiston, Braziliya va Peru mamlakatlari tanlandi. Mazkur mamlakatlarning tanlanishi ularning rivojlanayotgan iqtisodiyotlar qatoriga kirishi, raqamli to'lov tizimlarini rivojlantirish bo'yicha muhim tashabbuslarni amalga oshirayotgani hamda mazkur tizimlarning rivojlanish darajasi va natijalari o'rtasida muayyan farqlarning mavjudligi bilan izohlanadi. Xususan, Keniya, Hindiston va Braziliyada M-Pesa, UPI va PIX kabi raqamli to'lov platformalari muvaffaqiyatli tajribalar sifatida shakllangan bo'lsa, Perudagi BIM loyihasi raqamli to'lov tizimlarini rivojlantirish jarayonida institutsional va bozor omillarining ahamiyatini tahlil qilish imkonini beradi.

Tahlil jarayonida ikkilamchi ma'lumotlardan (secondary data) foydalanildi. Jumladan, BISning raqamli to'lov tizimlarining makroiqtisodiy ta'siriga bag'ishlangan tadqiqoti, Aurazo va Gasmi tomonidan amalga oshirilgan qiyosiy tahlil hamda IMFning raqamli texnologiyalar va soliq ma'muriyatchiligiga oid tadqiqotlari tadqiqotning asosiy nazariy va empirik manbalarini tashkil etdi [1, 2, 3].

Yig'ilgan ma'lumotlar qiyosiy tahlil usuli asosida tizimlashtirildi va umumlashtirildi. Har bir mamlakat tajribasi yagona mezonlar tizimi asosida baholandi: (i) davlat siyosati va tartibga solish yondashuvi; (ii) texnologik infratuzilma va to'lov platformasining asosiy xususiyatlari; (iii) moliyaviy institutlar o'rtasidagi hamkorlik darajasi; (iv) tizimning keng ommalashuviga ta'sir ko'rsatgan asosiy omillar.

Tadqiqotning metodologik cheklovi ikkilamchi ma'lumotlardan foydalanilganligi hamda tahlilning to'rtta mamlakat tajribasi bilan chegaralanganligi bilan bog'liq. Shu bilan birga, qiyosiy keys-tahlil tanlangan mamlakatlarning institutsional xususiyatlarini tizimli ravishda o'rganish, raqamli to'lov tizimlarining rivojlanishiga ta'sir etuvchi omillarni aniqlash va ularni o'zaro taqqoslash uchun maqbul metodologik yondashuv hisoblanadi.

TAHLIL VA NATIJALAR

Naqdsiz hisob-kitoblarni kengaytirish va iqtisodiy faoliyatni rasmiylashtirishda davlat tomonidan yaratilgan bepul, real vaqt rejimida 24/7 ishlaydigan to'lov infratuzilmasining ahamiyati Braziliyaning PIX tizimi misolida yaqqol namoyon bo'ladi. Braziliya Markaziy banki (BCB) tomonidan 2020-yilda ishga tushirilgan PIX tizimi davlat tomonidan qo'llab-quvvatlanadigan fintech modelining samarali namunalaridan biri hisoblanadi [4]. PIX tizimi qisqa muddat ichida tranzaksiyalar soni bo'yicha debit va kredit kartalaridan o'zib, Braziliyada keng qo'llaniladigan to'lov vositalaridan biriga aylandi. Shuningdek, mazkur tizim ilgari bank xizmatlaridan foydalanmagan 45,6 milliondan 50,6 milliongacha bo'lgan aholi qatlamining rasmiy moliyaviy-bank tizimiga jalb etilishiga xizmat qildi.

Braziliya Markaziy banki 2020-yil-fevral oyida qabul qilingan 32-sonli qaror asosida 500 000 dan ortiq tranzaksion hisobvaraqa ega yirik moliyaviy institutlarning PIX tizimiga majburiy ravishda qo'shilishini belgiladi. Mazkur tartib tizimda ishtirok etuvchi moliyaviy institutlar doirasini kengaytirib, PIX platformasining tarmoq samaradorligini (network effect) shakllantirish va raqamli to'lovlardan foydalanish ko'lamini oshirish uchun muhim institutsional asos yaratdi [4] (1-jadval).



1-jadval

CPMI a'zo mamlakatlarida chakana tezkor to'lov tizimlarining rivojlanishi¹

Mamlakat	Tizim nomi	Ishga tushgan yili	Tizim operatori	Regulyator organi
Janubiy Koreya	EBS	2001	KFTC	Janubiy Koreya Banki
Janubiy Afrika	RTC	2006	BankservAfrica	Janubiy Afrika xazira banki
Buyuk Britaniya	FPS	2008	FPSL	Angliya Banki / PSR
Hindiston	IMPS	2010	NPCI	Hindiston xazira banki
Shvetsiya	Swish / BiR	2012	Bankgirot	Finansinspektionen
Turkiya	BKM Express	2013	BKM	Turkiya Markaziy banki / BDDK
Italiya	Jiffy	2014	SIA	Italiya Banki
Singapur	FAST	2014	BCS	MAS
Shveysariya	Twint	2015	Twint	FINMA
Meksika	SPEI	2015	Meksika Banki	Meksika Banki

PIX tizimining bepul va 24/7 rejimida ishlashi, shuningdek, tezkor va qulay to'lov imkoniyatlarini taqdim etishi ilgari TED/DOC tizimlaridan foydalanishda mavjud bo'lgan xarajatlar va vaqt cheklovlarini kamaytirib, mikro-biznes subyektlari hamda aholining to'lov odatlarini raqamli shaklga o'tkazishga xizmat qildi.

Quyidagi jadvalda PIX tizimining joriy etilishidan keyin tijorat banklarining joriy hisobvaraqlarga xizmat ko'rsatishdan oladigan daromadlaridagi o'zgarishlar aks ettirilgan (2-jadval).

2-jadval

Braziliyaning eng yirik tijorat banklarining joriy hisobvaraqlarga xizmat ko'rsatishdan olgan yillik daromadlari dinamikasi (mln R\$)²

Bank nomi	2020-yil	2021-yil	Farq (mln R\$)	O'zgarish (%)
Banco do Brasil (BB)	7 524	6 231	-1 293	-17,2%
Caixa Econômica Federal	5 498	4 415	-1 083	-19,7%
Santander	3 966	3 812	-154	-3,9%
Itaú	7 592	7 455	-137	-1,8%
Bradesco	7 928	7 981	+53	+0,7%
Jami (Top-5)	32 508	29 894	-2 614	-8,0%

Jadval ma'lumotlaridan ko'rinib turibdiki, PIX tizimining joriy etilishi natijasida 2021-yilda Top-5 banklarning joriy hisobvaraqlarga xizmat ko'rsatishdan olgan daromadlari umumiy hisobda 2,614 mlrd R\$ ga, ya'ni 8,0 foizga kamaygan. Shu bilan birga, mazkur daromadlarning banklarning umumiy operatsion daromadlaridagi ulushi atigi 6 foizni tashkil etgani va PIX tizimining yangi mijozlar bazasini shakllantirish hamda bank xizmatlaridan foydalanish ko'lamini kengaytirish orqali bank tizimining resurs bazasini mustahkamlashga xizmat qilgani qayd etiladi.

IMF tadqiqotlari natijalari naqd pulsiz hisob-kitoblarning kengayishi va firmalarning raqamli infratuzilmalardan foydalanish darajasi (Firm Digitalization) soliq tushumlarining yig'iluvchanligini oshirish hamda yashirin iqtisodiyot ulushini qisqartirish bilan ijobiy bog'liqligini ko'rsatadi [3]. Biznes raqamlashuvi indeksining 1 standart og'ishga (0,19) oshishi, GovTech darajasi yuqori bo'lgan sharoitda, soliq tushumlarining YAIMga nisbatini 3 foizli punktga oshirish imkonini beradi.

Mamlakatlar guruhlarida kesimida soliq tushumlari va biznes raqamlashuvi ko'rsatkichlari quyidagicha taqsimlanadi: daromadi past mamlakatlarda soliq tushumlarining YAIMga nisbati 11 foizni, biznes raqamlashuvi indeksi 0,39 ni; rivojlanayotgan iqtisodiyotlarda ushbu ko'rsatkichlar mos ravishda 15 foiz va 0,60 ni; rivojlangan mamlakatlarda esa 25 foiz va 0,83 ni tashkil etadi. Simulyatsiya natijalari shuni ko'rsatadiki, daromadi past mamlakatlarda biznes raqamlashuvi rivojlangan mamlakatlar darajasiga yetkazilganda, soliq tushumlarining YAIMdagi ulushi 7 foizli punktga oshib, 18 foizga yetishi mumkin (3-jadval).

1 BIS (2016) va Schapiro va b. (2023) ma'lumotlari asosida tuzildi.

2 Yirik banklarning moliyaviy hisobotlari va Schapiro va b. (2023) ma'lumotlari asosida.



3-jadval

Rivojlangan (AEs) va rivojlanayotgan (EMDEs) mamlakatlardagi firmalar bo'yicha tanlanma statistika³

Ko'rsatkichlar	Rivojlangan mamlakatlar (AEs)	Rivojlanayotgan mamlakatlar (EMDEs)
Soliq to'lagan firmalar ulushi (PrTax)	93,0%	74,1%
Soliq to'lovlari / tovar aylanmasi	2,1%	1,6%
Raqamli intensivlik indeksi	2,4%	2,6%
Firmaning o'rtacha yoshi	18–19 yil	10–14 yil
Xodimlarning o'rtacha soni	25,41 kishi	21,24 kishi

Tahlil natijalari shuni ko'rsatadiki, rivojlanayotgan mamlakatlarda firmalarning taxminan 25,9 foizi soliq to'lovlari amalga oshirmagan yoki soliq to'lovlari bo'yicha tegishli ma'lumotlarni rasmiy hisobotlarda aks ettirmagan. IKT vositalaridan foydalanishning soliq to'lovlari ta'sirini ikki tomonlama qat'iy effektlar modeli (two-way fixed effects model) asosida baholash natijalari quyidagilarni ko'rsatadi (4-jadval).

4-jadval

IKTni o'zlashtirishning korxonalarning soliq to'lovlari ta'siri (ekstensiv va intensiv chegaralar)⁴

Erkli o'zgaruvchi: raqamli intensivlik	AEs	EMDEs
Soliq to'lash ehtimoli (ekstensiv chegara)	+0,408*** (0,053)	+0,075*** (0,019)
Soliq summasi logarifmi (lnTax)	+2,702*** (0,186)	+3,490*** (0,214)
Soliq / tovar aylanmasi nisbati	+0,036*** (0,004)	+0,081*** (0,006)

Izoh: Standard og'ishlar qavs ichida berilgan.

Rivojlanayotgan mamlakatlarda raqamli intensivlikning ortishi soliq to'lovlari tovar aylanmasiga nisbatini 0,081 birlikka oshirishi firmalarning soliq intizomini mustahkamlashi va daromadlarni yashirish imkoniyatlarining qisqarishi bilan izohlanadi.

Naqdsiz hisob-kitoblarning kengayishi soliq bazasini kengaytirish va soliq intizomini mustahkamlash (compliance channel) orqali yashirin iqtisodiyot ulushini qisqartirishga xizmat qiladi. Oaxaca-Blinder (OB) dekompozitsiya usulidan foydalanib, raqamlashtirilgan va raqamlashtirilmagan firmalar o'rtasidagi soliq to'lovlari tafovutining omillari tahlil qilinganda, mazkur tafovutning sezilarli qismi soliq intizomi bilan bog'liq omillar, ya'ni soliq qonunchiligiga rioya etish va hisobot ma'lumotlarining to'liq aks ettirilishi bilan izohlanishi aniqlandi (5-jadval).

5-jadval

Raqamli va raqamli bo'lmagan firmalar soliq to'lovlari tafovutining Oaxaca-Blinder dekompozitsiyasi (%)⁵

Sektor va mamlakat guruhi	Obyektiv omillar ta'siri (unumdorlik va hajm)	Soliq intizomi ta'siri (compliance)
Ishlab chiqarish (AE)	87,1%	12,9%
Ishlab chiqarish (EMLIC)	69,2%	30,8%
Xizmat ko'rsatish (AE)	12,9%	87,1%
Xizmat ko'rsatish (EMLIC)	40,0%	60,0%

Natijalar shuni ko'rsatadiki, yashirin iqtisodiyot ulushi yuqori bo'lgan xizmat ko'rsatish sektorida raqamlashtirish natijasida soliq tushumlarining o'sishida 60,0 foiz (EMLIC) va 87,1 foiz (AE) ulush bevosita soliq intizomining yaxshilanishi hamda naqd pulsiz tranzaksiyalarning shafflashuvi bilan bog'liq. Braziliyaning PIX tizimi tajribasi markaziy bank tomonidan boshqariladigan bepul va o'zaro moslashuvchan (interoperabel) tezkor to'lov tizimlari xususiy muqobillarga nisbatan moliyaviy qamrovni kengaytirish va naqd puldan foydalanish ehtiyojini qisqartirishda samarali infratuzilmaviy yechim bo'lishi mumkinligini ko'rsatadi [4]. Shuningdek, IMF ma'lumotlari biznesni raqamlashtirish va naqd pulsiz to'lovlarni joriy etish GovTech rivojlanish darajasi yuqori bo'lgan sharoitda, ya'ni indeks qiymati 0,5 dan yuqori bo'lganda, soliq tushumlarining o'sishiga sezilarli

3 Orbis, OECD va Nose va b. (2025) ma'lumotlari asosida tuzildi.

4 Nose va b. (2025) manbalar asosida muallif tomonidan yaratildi.

5 Orbis va Nose va b. (2025) ma'lumotlari.



ijobiy ta'sir ko'rsatishini tasdiqlaydi [3]. Raqamli to'lov tizimlari va IKT infratuzilmasining rivojlanishi, ayniqsa, norasmiylik darajasi yuqori bo'lgan kichik korxonalarda soliq majburiyatlarini bajarish bilan bog'liq xarajatlarni qisqartirish va ularning rasmiy iqtisodiy faoliyatga jalb etilishini rag'batlantirish orqali iqtisodiy faoliyatning shaffofligini oshirishga xizmat qiladi [1].

XULOSA VA TAKLIFLAR

Tadqiqot boshida belgilangan asosiy maqsad — naqdsiz hisob-kitoblar, raqamli to'lov infratuzilmasi, shuningdek, biznes va davlat raqamlashtirish darajasining yashirin iqtisodiyotni qisqartirish hamda soliq intizomini mustahkamlashga ta'sirini baholashdan iborat bo'lib, mazkur vazifa empirik va qiyosiy ma'lumotlar asosida muvaffaqiyatli amalga oshirildi.

Tadqiqot natijalari Braziliyaning PIX tizimi misolida raqamli to'lov infratuzilmasining ommalashuvi tranzaksiya xarajatlarni kamaytirish va to'lov xizmatlaridan foydalanish imkoniyatlarini kengaytirish bilan chambarchas bog'liqligini ko'rsatdi. Braziliya Markaziy banki (BCB) tomonidan jismoniy shaxslar uchun tranzaksiya xarajatlarning nol darajaga tushirilishi hamda yirik moliyaviy institutlarning tizimga integratsiyasini ta'minlovchi talablarning joriy etilishi PIX platformasida tarmoq samaradorligining shakllanishiga xizmat qildi. Ilgari TED/DOC tizimlaridan foydalanishda mavjud bo'lgan xarajatlar sharoitida naqd puldan foydalangan mikro-biznes subyektlari va aholi uchun bepul hamda real vaqt rejimida ishlaydigan muqobil to'lov vositasining yaratilishi raqamli to'lovlardan foydalanish ko'lamini kengaytirdi va naqd puldan foydalanish ehtiyojini qisqartirishga xizmat qildi.

Shuningdek, tadqiqot natijalari GovTech va biznes raqamlashuvi o'rtasidagi sinergiyaning soliq ma'muriyatchiligi samaradorligini oshirishdagi muhim ahamiyatini ko'rsatdi. Firmalarda raqamli vositalarning mavjudligi raqamlashtirish jarayonining texnik asosini shakllantiradi. Ushbu raqamli ma'lumotlarni real vaqt rejimida qabul qilish, qayta ishlash va soliq hisobotlari bilan integratsiyalash imkonini beruvchi GovTech tizimlarining rivojlanganligi esa soliq ma'muriyatchiligining samaradorligini yanada oshiradi. Mazkur sinergiya natijasida shakllanadigan raqamli izlar iqtisodiy operatsiyalarning shaffofligini kuchaytirish, soliq hisobotlarining aniqligini oshirish va soliq intizomini mustahkamlash uchun qo'shimcha imkoniyatlar yaratadi.

Oaxaca-Blinder dekompozitsiyasi natijalari xizmat ko'rsatish sohasida raqamlashtirish hisobiga soliq tushumlarining o'sishida soliq intizomini yaxshilash bilan bog'liq omillarning muhim ulushga ega ekanligini ko'rsatadi. Xususan, mazkur o'sishning 60%–87% qismi unumdorlikning o'zgarishidan ko'ra soliq intizomining yaxshilanishi va daromadlarning rasmiy iqtisodiy faoliyat doirasida aks ettirilishi bilan bog'liq ekanligi aniqlangan. Xizmat ko'rsatish sohasida naqdsiz to'lovlarning kengayishi iqtisodiy operatsiyalarning raqamli izini shakllantirib, aylanmalarni to'liq va aniq aks ettirish imkoniyatlarini oshiradi hamda soliq bazasining kengayishiga xizmat qiladi.

Tadqiqot natijalari naqdsiz hisob-kitoblarni kengaytirish to'lovlar qulayligini oshirish bilan bir qatorda, iqtisodiy faoliyatning shaffofligini kuchaytirish, yashirin iqtisodiyot ulushini qisqartirish va soliq bazasini kengaytirishning muhim mexanizmlaridan biri ekanligini ko'rsatadi. Ushbu natijaga erishishda ma'muriy mexanizmlar bilan bir qatorda, nol yoki minimal tranzaksiya xarajatlarga ega davlat to'lov infratuzilmasini rivojlantirish, shuningdek, davlat va biznes raqamli tizimlari o'rtasidagi integratsiyani kuchaytirish muhim ahamiyat kasb etadi. Braziliyaning PIX tajribasi ushbu yo'nalishda samarali institutsional va texnologik yechimlarni shakllantirish imkoniyatlarini namoyon etadi.

O'zbekiston iqtisodiyoti uchun quyidagi amaliy yo'nalishlarni ustuvor deb hisoblash mumkin. Birinchidan, nol komissiyali va o'zaro moslashuvchan Markaziy bank tezkor to'lov platformasini rivojlantirish maqsadga muvofiq. Bunda QR-kod asosidagi to'lovlar va kartalararo o'tkazmalar bo'yicha komissiya xarajatlarni maqbullashtirish, shuningdek, Braziliyaning PIX tajribasidan kelib chiqib, Markaziy bank shafeligida B2C va C2B tranzaksiyalari uchun bepul yoki minimal xarajatli, real vaqt rejimida ishlaydigan milliy to'lov infratuzilmasini yanada rivojlantirish mumkin.

Ikkinchidan, kichik biznes va xizmat ko'rsatish sohasida GovTech sinergiyasini kuchaytirish lozim. Buning uchun onlayn nazorat-kassa mashinalari (NKM), E-ijara va E-faktura tizimlarini soliq to'lovchilar faoliyatini tahlil qiluvchi raqamli platformalar bilan avtomatlashtirilgan tarzda integratsiya qilish maqsadga muvofiq. Ayniqsa, xizmat ko'rsatish sohasida shakllanadigan raqamli izlardan samarali foydalanish soliq ma'muriyatchiligi samaradorligini oshirish va soliq tushumlarining o'sishini ta'minlashga xizmat qiladi.

Uchinchidan, soliq majburiyatlarini bajarish xarajatlarni (Compliance Cost) qisqartirish va iqtisodiy rag'batlantirish mexanizmlarini kuchaytirish zarur. Mikro va kichik tadbirkorlik subyektlari uchun naqdsiz to'lovlarni qabul qilish infratuzilmasini joriy etishda soliq imtiyozlarini qo'llash hamda naqdsiz aylanmalar uchun maqbullashtirilgan soliq stavkalarini belgilash raqamli va rasmiy faoliyatni yanada jozibador qilishga xizmat qilishi mumkin. Natijada rasmiy iqtisodiy faoliyat yuritish tadbirkorlik subyektlari uchun qulay va iqtisodiy jihatdan samarali muhitni shakllantiradi.



To'rtinchidan, moliyaviy qamrovni kengaytirish maqsadida bank hisobvarag'iga ega bo'lmagan aholi qatlamlari uchun soddalashtirilgan masofaviy identifikatsiya, jumladan, biometrik identifikatsiya va Face-ID texnologiyalari asosida raqamli hisobvaraqlar hamda elektron hamyonlarni ochish mexanizmlarini rivojlantirish maqsadga muvofiq. Mazkur yondashuv aholining zamonaviy moliyaviy xizmatlardan foydalanish imkoniyatlarini kengaytirish, raqamli to'lovlar ko'lamini oshirish va moliyaviy inklyuziyani mustahkamlashga xizmat qiladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Aguilar A., Frost J., Guerra R., Kamin S., Tombini A. Digital payments, informality and economic growth // BIS Working Papers. — 2024. — No. 1196. — 28 p.
2. Aurazo J., Gasmi F. Digital payment systems in emerging economies: Lessons from Kenya, India, Brazil, and Peru // TSE Working Papers. — 2024. — No. 1572. — 24 p.
3. Nose M., Pierri N., Honda J. Leveraging Digital Technologies in Boosting Tax Collection // IMF Working Paper. — 2025. — No. WP/25/89. — 28 p.
4. Schapiro M.G., Mouallem P.S.B., Dantas E.G. PIX: explaining a state-owned Fintech // Brazilian Journal of Political Economy. — 2023. — Vol. 43, No. 4. — P. 874–892.
5. Bank for International Settlements (BIS). Annual Economic Report 2024. — Basel: Bank for International Settlements, 2024.
6. International Monetary Fund (IMF). Digitalization and Taxation: Opportunities and Challenges. — Washington, DC: International Monetary Fund, 2024.
7. World Bank. The Global Findex Database 2021: Financial Inclusion, Digital Payments, and Resilience in the Age of COVID-19. — Washington, DC: World Bank, 2022.
8. World Bank. Digital Economy for Africa (DE4A): Country Diagnostic and Digital Transformation Framework. — Washington, DC: World Bank, 2024.



IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

Ingliz tili muharriri: Feruz HAKIMOV

Musahhih: Zokir ALIBEKOV

Sahifalovchi va dizayner: Hasan MAQSUDOV

2026. № 8/2

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

Mazkur jurnalda maqolalar chop etish uchun quyidagi havolalarga maqola, reklama, hikoya va boshqa ijodiy materiallar yuborishingiz mumkin.

Materiallar va reklamalar pullik asosda chop etiladi.

El.Pochta: sq143235@gmail.com

Bot: @iqtisodiyot_77

Tel.: 93 718 40 07

Jurnalga istalgan payt quyidagi rekvizitlar orqali obuna bo'lishingiz mumkin. Obuna bo'lgach, @iqtisodiyot_77 telegram sahifamizga to'lov haqidagi ma'lumotni skrinshot yoki foto shaklida jo'natishingizni so'raymiz. Shu asosda har oygi jurnal yangi sonini manzilingizga jo'natamiz.

"Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali 03.11.2022-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №566955 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.

Litsenziya raqami: №046523. PNFL: 30407832680027

Manzilimiz: Toshkent shahar, Mirzo Ulug'bek tumani
Kumushkon ko'chasi, 26-uy.



Jurnal sayti: <https://yashil-iqtisodiyot-taraqqiyot.uz>